

TASHQI QARZ VA UNI BOSHQARISH

Qodirova Sug'diyona Umidjon qizi

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti

Iqtisodiyot fakulteti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada tashqi qarz hamda uni boshqarishning ahamiyati haqida borasida fikr va mulohazalar keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *Mablag', YAIM, valyuta, xalqaro me'yorlar, moliya, qarz, ijtimoiy-iqtisodiy, davlat tashqi qarzi.*

Bugungi kunda ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda mamlakatimizga chetdan jalb qilingan mablag'lar, ya'ni tashqi qarz to'g'risida turli munosabatlar bildirilmoqda. Ayniqsa, ayrim fuqarolarimizda tashqi qarz nimaga kerak, ertaga uni kim to'laydi, nima hisobidan to'laymiz, degan fikrlar ham uchramoqda. Eng avvalo, chetdan jalb qilingan mablag'lar va undagi davlat tashqi qarzining miqdoriga e'tibor qaratadigan bo'lsak, umumiy tashqi qarz 2021-yilning 1-yanvar holatiga 23,3 milliard dollarni yoki yalpi ichki mahsulotga nisbatan 40,4 foizni, shundan davlat nomidan jalb qilingan tashqi qarz 21,1 milliard dollarni yoki YAIMGa nisbatan 36,5 foizni tashkil qiladi. Bu ko'rsatkichlar Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg'armasi va boshqa xalqaro moliya tashkilotlari tomonidan xalqaro me'yorlar doirasida, ya'ni "xavflilik darajasi past" deb baholanmoqda.

Raqamlarni boshqa davlatlar bilan solishtirishdan yiroqmiz. Mutaxassis sifatida milliy manfaat va shart-sharoitlarimizdan kelib chiqib chamalaganimiz va qarzni qaysi maqsadlarga yo'naltirish uchun oldik hamda qanday natijalarga erishayotganimiz kabi masalalarni tahlil qilishni lozim, deb hisoblaymiz. Shu o'rinda chetdan qarz olish qanchalik samarali: Bu savolga javob berishdan oldin hayotiy bir masalaga e'tibor qaratsak. Aytaylik, ko'p qavatli uyda xonadonning narxi 300 million so'm, uni sotib olishga talabgor fuqaroning oylik maoshi esa 6 million so'm. Fuqaro maoshining teng yarmini o'zining kundalik xarajatlariga sarflaydi, desak, xonadonni o'z mablag'i hisobidan sotib olishi uchun har oyda 3 million so'mdan hisoblaganda, 8 yilu 4 oy jamg'arishi kerak bo'ladi. Lekin yashash sharoiti xonadonni tezda sotib olishni talab qilmoqda. Masalaning yechimi esa qarz, ya'ni ipoteka krediti olish uchun bankka murojaat qilish. Bunda fuqaro kreditining foizi pastroq va uzoqroq muddatga beradigan bankni tanlashga harakat qiladi.

Chunki qarzni qaytarish va uning foizlarini to'lashni o'z daromadi hisobidan amalga oshirish imkoniyatlari kengayadi. Bank ham, o'z navbatida, kreditni daromad manbaiga, ya'ni to'lash imkoniyati bor shaxsga berishdan manfaatdor bo'ladi. Xuddi shunday mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga qaratilgan milliy manfaatlarimizdan kelib chiqadigan davlat investitsiya dasturlarini qisqa muddatlarda

amalga oshirish uchun chetdan qarz mablag'larini jalb qilishga zarurat paydo bo'ladi. Moliya vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, 2020-yilda elektr energetikasiga 2,9 milliard dollar, neft va gaz sohasiga 2,6 milliard dollar, transportga 2,4 milliard dollar, uy-joy kommunal xizmatlariga 2 milliard dollar yo'naltirilgan. Elektr energiyasi ishlab chiqarishni ko'paytirish bo'yicha loyihalarni oladigan bo'lsak, ushbu xarajatlar hisobidan amalga oshirilgan modernizatsiya ishlari Navoiy IESning elektr energiyasini ishlab chiqarish hajmini 6-7 foizga oshiradi. Shuningdek, To'raqo'rg'on IES qurilishi Farg'ona, Andijon va Namangan viloyatlarining qariyb 40 foizini elektr energiyasi bilan ta'minlaydi. Kimyo sanoatining «Navoiyazot» AJ negizida umumiy qiymati 1,7 milliard dollarga teng uchta yirik loyiha amalga oshirilib, yiliga 100 ming tonna polivinilxlorid, 75 ming tonna kaustik soda, 300 ming tonna metanol, 500 ming tonna azot kislotasi, 660 ming tonna ammiak va 577 ming tonna karbamid ishlab chiqarishning zamonaviy, energiya tejankor quvvatlari barpo etildi. Shundan masalaning yechimi ham kelib chiqadi.

Elektr energiyasi ishlab chiqarish hajmlarining ko'payishi iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarini, ayniqsa, sanoatning rivojlanishiga, ijtimoiy soha obyektlari va aholi ehtiyojini to'liq ta'minlash imkoniyatini yaratishi hamda pirovardida YAIM hajmi o'sishiga olib keladi. Neft va gaz hajmlarini oshirish loyihalari ham xuddi shunday maqsadlarga qaratilgan. Kimyo sanoatidagi investitsiya loyihalari esa iqtisodiyot uchun zarur bo'lgan xom ashyo va tovarlarning chetdan olib kelinishini keskin qisqartirib, valyuta mablag'laridan samarali foydalanishga xizmat qiladi. Demak, qarzni qaytarish imkoniyatlari hamda manbalari ham kengayib boradi. Shu bilan birga, aholining elektr energiyasi va tabiiy gaz ta'minotiga bo'lgan talabini ta'minlash imkoniyati kengayib, turmush sharoiti ham yaxshilanib boradi.

Uy-joy kommunal xizmatlariga jalb qilingan mablag'lar, asosan, aholini ichimlik suvi bilan ta'minlash davlat dasturlarini amalga oshirishga yo'naltirilmoqda. Jumladan, Prezidentimiz tashabbusi bilan Toshkent viloyatida Osiyo taraqqiyot banki kredit mablag'i hisobidan qiymati 143,8 million AQSH dollarini tashkil qiluvchi loyihaga muvofiq 2019-yilning mart oyida Toshkent, Qibray va Zangiota tumanlari aholisini ichimlik suvi bilan ta'minlaydigan suvni tozalash inshooti qurilishi boshlangan. Obyekt foydalanishga topshirilgandan keyin 58 ta mahalla ichimlik suviga ega bo'lib, viloyat aholisining ichimlik suvi bilan ta'minlanganlik darajasi 60 foizdan 92 foizgacha oshadi. Albatta, toza ichimlik suvi bilan ta'minlash darajasining oshishi aholi salomatligi yaxshilanishiga xizmat qiladi.

Ta'kidlash lozimki, davlat tashqi qarzining asosiy qismi dunyo miqyosida yuqori nufuzga ega bo'lgan banklar va kredit tashkilotlaridan, asosan, imtiyozli foiz stavkalarida va uzoq muddatga jalb etilgan. O'zbekiston Respublikasining xalqaro moliyaviy institutlardan jalb qilgan tashqi qarz portfeli hajmi 10,1 milliard dollarni tashkil etib, mazkur kreditlar uzoq muddat (30 yilgacha) hamda imtiyozli foiz stavkalarida taqdim etilgan. Xususan, davlat tashqi qarzining asosiy qismi Osiyo

taraqqiyot banki (5,0 mlrd. dollar), Jahon banki (3,7 mlrd. dollar) va Islom taraqqiyot banki (0,9 mlrd. dollar) hissasiga to'g'ri keladi.

Respublikaning davlat qarzi qoldig'i 2023-yil 1-yanvarda 29,2 milliard dollarni tashkil etgan. Shundan tashqi qarz 25,9 milliard dollar, ichki qarz 3,3 milliard dollarga teng. Bu haqda Iqtisodiyot va moliya vazirligi e'lon qilgan davlat qarzi holati va dinamikasi sharhida ma'lumot berilgan. Vazirlik hisobotiga ko'ra, davlat qarzi miqdori 2017-yilda 11,6 mlrd dollar bo'lgan va ko'rsatkichlar yildan yilga o'sib bormoqda. Xususan, 2018-yilda davlat qarzi miqdori 14,9 mlrd dollarga, 2019-yilda 17,8 mlrd dollarga yetgan. 2020-yilda 23,4 mlrd dollarni, 2021-yilda esa qarz miqdori 26,3 mlrd dollarni tashkil etgan.



Yillar kesimida hisoblaganda, 2019-yilda jalb qilingan tashqi qarz miqdori 5,8 mlrd dollarni tashkil etgan. Shuningdek, 2020-yilda 5,35 mlrd dollar, 2021-yilda 4,92 mlrd dollar, 2022-yilda 4,49 mlrd dollarlik tashqi qarzlari olingan. Vazirlik axborotida 2023-yil uchun O'zbekiston nomidan va respublika kafolati ostida jalb qilinadigan tashqi qarzning cheklangan miqdori 4,5 mlrd AQSH dollari etib belgilangani keltirilgan. O'zbekistonning 2022-yil yakuni bo'yicha jami davlat tashqi qarzidan (29,2 mlrd dollar) 33,4 foizi yoki 8,6 mlrd dollari davlat budjetini qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgani ko'rsatilgan. Jami qarzlarning 11,6 foizi yoki 3 mlrd dollari elektr energetika sanoatiga, 10,9 foizi (2,84 mlrd dollar) energetika sanoatiga, 9,8 foizi (2,54 mlrd dollar) qishloq va suv xo'jaligiga, 9,7 foizi (2,51 mlrd dollar) transport va transport infratuzilmasiga sarflangan. Shu bilan birga, qarzlardan 8,9 foizi (2,3 mlrd dollar) uy-joy kommunal xo'jaligi sohasiga yo'naltirilgan mablag'lar hissasiga to'g'ri keladi. Davlat tashqi qarzining kreditorlar kesimida taqsimlanishi O'zbekistonning xalqaro moliyaviy institutlardan (XMI) jalb qilgan tashqi qarz portfeli hajmi 13,8 mlrd dollar yoki davlat tashqi qarzining 53,2 foizini tashkil etib, mazkur kreditlar uzoq muddat hamda imtiyozli foiz stavkalarida berilgan.

Xalqaro moliya institutlaridan jalb qilingan davlat tashqi qarzi qoldig'ining asosiy qismi Osiyo taraqqiyot banki (6 mlrd dollar), Jahon banki (5,5 mlrd dollar), Islom taraqqiyot banki (0,9 mlrd dollar) va Osiyo infratuzilmaviy investitsiyalar banki (0,5

mlrd dollar) hissasiga to'g'ri keladi. Ma'lum qilinishicha, kreditorlar oldidagi qarzdorlik bo'yicha xarajatlar davlat korxonalarini tomonidan investitsion loyihalarni moliyalashtirish natijasida tushgan mablag'lar hisobidan so'ndiriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni. 28.01.2022 y. URL: <https://lex.uz/docs/5841063>
2. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi.
3. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy – iqtisodiy holati, Tashqi iqtisodiy faoliyat, 128 bet.
4. <https://stat.uz/uz/>, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligining rasmiy ma'lumotlari.
5. Shernaev, A. A. Principles and methods of organization of the internal tax control system in joint stock company. International Journal of Economics, Business and Management Studies-ISSN, 2347-4378.